

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDA QO'LLANGAN TEONIMLARNING SEMANTIK TAHLILI

Ozoda ABDULLAYEVA

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi,
Ozodaa576@gmail.com,*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.1480656>

Annotatsiya: Mazkur maqola onomastika sohasiga bag'ishlangan bo'lib, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida qo'llangan ayrim teonimlar ma'nosi izohlanadi va tahlilga tortiladi. Shuningdek, teonimlar o'rta sidagi sinonimiya hodisalari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: teonimiya, teonimika, teonim, atribut, sinonimiya, agnonim.

Аннотация: Статья посвящена области ономастики, в ней разъясняется и анализируется значение некоторых теонимов, используемых в эпической поэме Алишера Навои «Хайрат ул-абор». Рассматриваются также явления синонимии между теонимами.

Ключевые слова: теонимиya, теонимика, теоним, атрибут, синонимия, агноним.

Abstract: This article is devoted to the field of onomastics, and the meaning of some theonyms used in Alisher Navoi's epic poem "Hayrat ul-abror" is explained and analyzed. The phenomena of synonymy between theonyms are also considered.

Keywords: theonymy, theonomics, theonym, attribute, synonymy, agnonym.

Teonim (yunoncha teog - xudo (Olloh) + onoma atoqli ot) Ollohnning nomi va atributlarining atoqli oti degan ma'noni bildiradi. Teonimiya esa shunday atoqli otlarning to'plami, yig'indisi, teonimika shunday onomastik ko'lamga mansub atoqli otlarni o'rjanuvchi soha ma'nosini bildiradi.[5.75]

Teonimlar tildagi juda qadimiy lug'aviy birliklar bo'lib, ularning paydo bo'lish davrlari insoniyatning o'ta ko'hna dunyodagi diniy qarashlari, animizm, totemizm, tabu, evfemizm singari tasavvurlari bilan bog'liqdir. Teonimlarning paydo bo'lishi ko'p xudolilik va bir xudolilik davrlarini o'z boshidan kechirgan.

Turkiy teonimlar, ayniqsa, uning o'ta ko'hna davrlardagi tarixi haqida G.P.Snesaryov, O.A.Suxareva, N.Direnkova, M.V.Stebleva, T.D.Bayalieva, N.F.Mokshin kabi olimlarning ishlarida uchraydigan ma'lumotlar qimmatlidir. Masalan, G.P.Snesaryovning maqolasida Araviya qabilalarining qadimiy ilohlari al-Lot, al-Uzzo, Manot; YAman ilohlari Vadd, Suva; ko'hna tarixga mansub bo'lgan Ramuza, Axraman, Axura-Mazda, shuningdek mifik tasavvurlar bilan aloqador ajdarho, dev // devoh, pari, jinlar, ularning genezisi, etimologiyasi haqida fikr yuritilgan.[4.272-282]

Alloh (Xudo // Xudoy, Tangri, Yaratgan, Yazdon, iloh, ilohalar va bu tushunchalar bilan bog'liq atributlar haqida tarixiy, badiiy, etnografik, folklorshunoslik, mifologik, qisman tilshunoslik fanlarida kuzatish olib borilsa-da,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

teonim, teonimiya tushunchasi, uning doirasiga kiradigan aniq lug‘aviy onomastik birliklar, ularning chegarasi va ko‘lami yuzasidan hozircha izchil fikrlar bildirilganicha yo‘q. Nomshunoslik ilmida bu masalani o‘rganishda yo‘l qo‘yilayotgan chalkashliklarni quyidagicha to‘rtga ajratish mumkin: a) bordi-yu, teonim tushunchasi va termini ma’nosidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, teonimlar doirasiga faqat Alloh nomi, boshqa xil qadimiy iloh va ilohalar nomi kiritilishi lozim; b) ba’zi ishlarda atoqli ot Alloh (Tangri, Yaratgan, Xudo // Xudoy), uning turli sifatlari bo‘lmish sattor, vohid, hamid, jabbor, g‘affor, qodir va boshqalar teonim sifatida qayd qilinmoqda. Ular atoqli ot deb qaraladigan bo‘lsa, hozirgi imloviy qoidalarga ko‘ra bosh harf bilan yozilmog‘i kerak; v) Alloh tushunchasining dubletlari, absolyut sinonimlari bo‘lmish Olloh // Alloh, Tangri, Xudo // Xudoy, Yazdon va boshqalar hozirgi vaqtida gohida kichik, gohida bosh harflar bilan yozilmoqda; g) ba’zi ishlarda teonim, teonimiya tushunchasi asl ma’nosiga teskari ravishda har qanday diniy tushuncha va tasavvurlar atoqli otini o‘zida mujassamlashtiruvchi onomastik birlik deb tushunilmoqda. Shunga ko‘ra teonimiya doirasi nihoyatda kengayib, diniy mazmunli tabarruk, muqaddas deb bilinuvchi shaxslar, avliyolar, o‘tmishda sig‘inish obekti bo‘lgan real va noreal (xayoliy, mifologik) subektlar, figuralar nomi ham kiritilmoqda va ular ko‘pincha agnonim termini bilan yuritilmoqda.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida ham bir talay teonimlar qo‘llangan.

“Hayrat ul-abror” (o‘zbekcha: “Yaxshi kishilarining hayratlanishi”) – Alisher Navoiy qalamiga mansub “Xamsa”ning birinchi dostoni (1483) bo‘lib, pand-nasihat ruhidagi ta’limiy-axloqiy, falsafiy doston. 3,988 baytdan iborat bo‘lib, 64 bob, 20 maqolatdan tashkil topgan. Aruzning sare’ bahrida yozilgan. Asar an’anaviy muqaddima — hamd va na’t bilan boshlanadi. Navoiyning dunyo haqidagi qarashlari mana shu muqaddimada o‘z aksini topgan. Uningcha, dunyoning boshi ham, oxiri ham, yaratuvchi ham, kuzatuvchi ham Allohdir: Avval o‘zung, mobayn o‘zung, Barchaga xoliq, boriga ayn o‘zung.

Asarda shoir Alloh, borliq, inson haqida shunday fikrlaydi: bir vaqtlar bu jahon pinhon (yashirin) edi. Na yer, na ko‘k, na kun, na tun — hech narsa yo‘q edi. Sendan boshqa hech kim, hech narsa yo‘q edi. Nozir ham, manzur ham o‘zing eding. Ishqingdan mast, husningdan masrur eding, husning jilvasiga cheku chegara yo‘q edi. Senga ko‘zgu kerak bo‘ldi va shu maqsad bilan dunyo maydonga keldi. Demak, dunyo sening jamolingga oynadir. Sen dunyoni g‘oyat go‘zal (latif) qilib yaratding, lekin hammasidan insonni ulug‘ (sharif) aylading. Binobarin, Alloh har narsadan ulug‘ va yaqin tutgan inson ham tabiatning, ham jamiyatning gultojidir. Navoiy

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

dunyoni Allohnинг namoyon bo‘lishidir, deb biladi. Inson esa uning markaziy siymosi.

“Hayrat ul-abror”ning ikkinchi maqolatida qo‘llangan teonimlarni ko‘rib o‘tamiz.

1. **Parvardigor** - [f. پروردگار – yaratuvchi, xalloq; rizq beruvchi; xudo] din. Borliqni yaratuvchi; Alloh, xudo. Parvardigori olam.[1. 665.]. *Olamdagи xalqlarnи Pok Parvardigor najot ahli va xalok guruhiga bo‘ldi.* [2. 37.]

2. **Tangri** - [mo‘g‘. tenger-osmon; Xudo] Olloh, xudo, parvardigor.[1.171.] *Ularnи tangri taborak beshta qilib yasagan. Buni muborak beshlik desa ham bo‘ladi.* [2.37.]

3. **Alloh** - [a. ﷺ – ilohiy kuch, xudo] Islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch; xudoning nomi (Keyingi yillarda, mahalliy talaffuzga mos holda “olloh” tarzida ham qo‘llana boshlagan va qo‘llanyapti). [1.92.] *Bu besh ustunning birinchisi hech shubhasiz “lo iloh” bilan “illalloh”dir. Yana biri Muhammad (s.a.v)ni uning elchisi deb bil. Unga guvohlik berib, uni qabul ham et. Yo Alloh, yo Alloh, bu ikki so‘z qanday so‘zlar bo‘ldiki, ular tufayli ikki olam tartibga keldi!* [2.37.]

4. **Muhammad(ar)** - maqtovga, olqishlarga sazovor. Muhammad payg‘ambar (Muhammad ibn Abdulloh, 570 yoki 571 Makka-632 , Madina) ning ismi. Shakllari: Muhammadjon, Muhammadxon va boshqalar. [3. 266.]. *Bu besh ustunning birinchisi hech shubhasiz “lo iloh” bilan “illalloh”dir. Yana biri Muhammad (s.a.v)ni uning elchisi deb bil. Unga guvohlik berib, uni qabul ham et. Yo Alloh, yo Alloh, bu ikki sz qanday szlar bldiki, ular tufayli ikki olam tartibga keldi!* [2.37.]

5. **Xudo-** [f. خدا – iloh, xudo; hukmdor, xo‘jayin] Diniy tushunchaga, xususan, islom diniga ko‘ra, butun mavjudotni, butun olamni yaratgan va uni boshqaruvchi oliy ilohiy kuch; har qanday dinnining e’tiqod qilish asosi (musulmonlarda: “Alloh” so‘zining sinonimi). (O‘TIL,84). *Shundan keyin o‘z yashab turgan uyingni (shar‘an) foydalanishga noloyiq deb topib, Xudoning uyi (masjid) tomon yo‘l olishing kerak.* [2.38.]

6. **Sajda-** [a. سجدة – sig‘inish, topinish; bosh egib ta’zim qilish] din. Ibodatda yoki sig‘inishda tiz chkkан holda peshona va qo‘l kaftlarini joynamozga tegizish. .[1.498]. *Shunday yaxshi sajda hamda pok yuz bilan namoz talsa, (lganingizda ham) yerga Quyosh kabi (pok yuz bilan) kirasiz.* [2.38.].

7. **Namoz** - [f. نماز – musulmonlarda Allohgа ibodat, duolar] 1 Musulmonlarning kuniga besh mahal qilinadigan ibodatlari majmuyi va ularning har biri. Ertalabki namoz. Kechki namoz. Juma namozi. Namoz qimoq. 2 Umuman, ibodat. -

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Yusufjon, musulmonsan, namoz, rza rniga mas xarabozlik qilib, ahli imon, ahli rastani toat-ibodatdan qyar emishsan. Tashla bu kasbni, gumroh blma, – dedi eshon. K.Yashin, Hamza. Namoz kuni Hayitning namoz qiladigan birinchi kuni. 3. Namoz (erkaklar ismi) .[1.333]. *Shunday yaxshi sajda hamda pok yuz bilan namoz talsa, (lganiningizda ham) yerga Quyosh kabi (pok yuz bilan) kirasiz.* (Hayrat ul-abror,38).

8. **Payg‘ambar** - [f. پیغمبر /پیغمبر – xabar beruvchi, oldindan xabar keltiruvchi] din. Allohning xohish-irodasini bandalariga yetkazuvchi ilohiy vakili, nabiyl, rasul. [1. 696.]. *Bunisi shunaqa qismki, tashqi tomoni Payg ‘ambar shariatiga , qanday izohlansa ham qabul qilsang bo ‘laveradi.* [2.38].

Payg‘ambarlarning ismlari teonimlarning asosiy qismini tashkil etadi. Payg‘ambar so‘zi forscha bo‘lib, payg‘om xabar, burdan keltirmoq, ya’ni xabar keltiruvchi, elchi manolarini bildiradi. Diniy adabiyotlarda, xususan Qur’on va hadislarda payg‘ambarlarga nisbatan nabi va rasul so‘zlari qo‘llangan. Qur’onda 28 ta payg‘ambarning nomi qayd etilgan: Odam, Idris, Nuh, Xud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Is’hoq, Yoqub, Yusuf, Lut, Ayyub, Zul kifl, SHuayb, Muso, Xorun, Dovud, Sulaymon, Yunus, Ilyos, Yahyo, Zakariyo, Iso, Muhammad, Luqmon, Zulqarnayn. Qur’ondagi 114 ta suraning 7 tasi payg‘ambarlar nomiga qo‘yilgan: Yunus 10-sura, Xud 11-sura, Yusuf 12-sura, Ibrohim 14-sura, Muhammad 47-sura, Nuh 71-sura, Inson (Odam) 76-sura.

Xulosa qilib aytganda, teonimlar onomastik birlik hisoblanib, asarlarda davr, hudud, zamon, din byicha ma’lumotlarni ifodalab keladi va asar mazmunini kengroq, o‘qimishli bo‘lishi uchun yordam beradi. Maqolamizda onomastik birlik bo‘lmish teonimlarni, ya’ni ko‘proq Alloh va unga sinonim hisoblangan Tangri, Xudo, Yaratgan kabi leksemalarni va ularning izohlarini ko‘rib chiqdik. Keyingi ishlarimizda teonimlarni yanada batafsilroq yoritishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература/ References):

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI tom. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (nasriy bayoni). –Toshkent: Mutolaa,2024.
3. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi, 2007.
4. Снесарёв Г.П. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана // Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илим, 1980. – С. 272-282.
5. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – B. 75.